

INKLYUZIV TA'LIMNI BOSHLANG'ICH SINFLARDA AHAMIYATI

G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Sirtqi bo'lim o'qituvchi

Babayarova Laylo Olimovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Sirtqi bo'lim 3kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nuqsoni bor bolalarni boshlang'ch ta'limda o'qishini uchun qo'llaniladigan metodlar va ular bolada qanday fazilatlarni rivojlantirishi batafsil yoritilgan.

Аннотация: В этой статье подробно описаны методы, используемые для обучения детей с дефектами в начальном образовании, и какие качества они развивают в ребенке.

Annotation: This article covers in detail the methods used to make children with disabilities study in elementary education and what qualities they develop in a child.

Kalit so'zlar: Zamonaviy axborot, tanqidiy fikrlash, xotira mashqi, tafakkur, mehnat tarbiyasi, aqliy rivojlanish, motivatsiya, depressiya, maxsus ehtiyojli bolalar, yoriq ta'lim-tarbiya.

Ключевые слова: Современная информация, критическое мышление, упражнение на память, мышление, трудовое воспитание, умственное развитие, мотивация, депрессия, дети с особыми потребностями, закрытое обучение-воспитание.

Key words: Modern information, critical thinking, memory training, thinking, labor education, mental development, motivation, depression, children with special needs, closed Education.

Boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'limni shakllantirish. 2023-yil 19-may kuni Oliy Majlis ilk bor inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi kiritilgan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. O'zbekiston nogironlar assotsiyatsiyasi mutaxassilar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim ta'moyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlil o'tkazdi. Qonunning 20- moddasida jismoniy, aqliy va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida

inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadi. Inklyuziv ta'limda jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarga ta'lim olish chog'ida o'ziga nisbatan har qanday tarzda kamsitishni istisno etgan holda teng huquqli munosabatda bo'lish haqida so'z boradi.[1]

Bu ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqli ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ta'lim tarbiya olishlari mumkinligini e'tirof etadi. Maxsus ehtiyojli bolalarini ta'lim-tarbiyasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Inklyuziv ta'limda mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirishga doir tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Jamiyatda nogironlarga nisbatan yangi fikr va munosabat juda yuqori. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim-tarbiya berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bu munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul. Lekin kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni bolalar tezroq anglaydi.

Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan ta'lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarini anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar endi. Inklyuziv ta'limni amalga oshirayotgan umum ta'lim maktablarida tayyorlov guruh va birinchi sinflarda darslar 35 daqiqa, boshqa sinflarda 45 daqiqadan olib boriladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asosan baholanadi.[2]

Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi. L.S Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra “Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi” fikri bilan ham taqqoslash mumkin. Inklyuziv ta'limni maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim maktab sinflarida logoped xonalarda korreksion pedagogik yordam olish, korreksion sinflarda maxsus ta'lim olish shakllarida tashkil etish mumkin. Umum ta'lim tizimida maxsus ehtiyojli bolalarini o'qitish o'qituvchidan ikki barobar mas'uliyat bilan ishlashni talab etadi. Bu ta'lim joriy qilingan maktablarda psixologik faoliyati yuritishi lozim. Bunday maktablarda Shifokor – psixonevrolog (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib borishi zarur. Na'lim asosan umumta'lim maktablarining oddiy sinflarida o'qituvchilar yashash joyiga yaqin bo'lgan umumta'lim maktablarida olib boriladi. Har qanday bola kamol

topib sog'lom o'sib, uning bilim faoliyati, sezgi qobiliyatlari mukammal rivojlanib borsa, bunday bolalar 6-7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinishga tayyor bo'ladi.

Nutqida kamchilik bor o'quvchilar bilan ishlashda ularga alohida e'tibor qilish, hamda logoped mutaxassislaridan maslahat olishlari kerak. Eshitishi zaif bolalarni yetarli ssvod olishlari uchun o'qituvchilar oldida bir qancha vazifalar turadi. Bolaning eshitish qobiliyati darajasini bilish maqsadida zarur bo'lsa davolash uchun ottolorengolog oldiga yuborish lozim. Eng muhimi sinfda qulog'i unchalik yaxshi eshitmaydigan bola borligini esda tutish va bunday bolalarni birinchi partaga o'tkazib qo'yish kerak. Ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilar bilan ishlashda shuni unutmaslik keraakki, umumta'lim maktab o'quvchisi uchun oddiy bo'lgan mash'ulotlar, jismoniy tarbiya darasida og'irliklarni ko'tarish kabilar ham bolaning ko'rish qobiliyatiga zarar yetkazishi mumkin.

Kezi kelganda eslatib o'tish joizki, mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish dasturlarida inklyuziv ta'limga ehtiyojmand o'quvchilarni ta'lim bilan qamrab olish maqsadlari amalga oshirilmoqda. Shu sababli boshlang'ich ta'limning inklyuziv ta'lim innovatsiyasi bo'yicha yangi avlod tadqiqotlarini amalga oshirish bu boradagi eng muhim vazilardan biri bo'lib turganligini eslatib o'tish lozim. Chunki alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv ta'lim bilan ta'minlash boshlang'ich ta'limning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biridir[4;56].

Shunday qilib mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning inklyuziv ta'lim innovatsiyasi muayyan yutuqlar, amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadqiqotlar va mavjud muammolarni amaliy hal qilish xususiyatlariga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bunda asosiy e'tibor inklyuziv ta'limga ehtiyojmand o'quvchilarning o'zlarini to'laqonli shaxs sifatida his qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Shu sababli bunday yondashuv boshlang'ich ta'limning o'ziga xos innovatsiyalaridan birini tashkil qiladi[5;47].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak umumta'lim maktablarida o'z sog'lom tengqurlari qatorida o'qiydigan bolalarga o'qitish va ta'limni to'g'ri tashkil etish har bir o'qituvchining mas'uliyati burchi bo'lib qolishi kerak. Inklyuziv ta'lim vazifasi talabaning qobiliyati va holatidan qat'i nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuziv tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga

qatnamay qoʻygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam koʻrsatishni kafolatlaydi.

Oʻzbekistonda boshlangʻich taʼlim jarayonining inklyuziv taʼlim innovatsiyasi tashkil qilinganligi muhim ahamiyatga egadir. Bunda asosiy eʼtibor boshlangʻich sinflarda inklyuziv sinflarni tashkil qilish va uning vositasida inklyuziv taʼlim oluvchilarni sogʻlom oʻquvchilar bilan birgalikda oʻqitish amaliyotiga qaratilmoqda. Ayni paytda, boshlangʻich taʼlimda inklyuziv sinflarni tashkil qilish va ularning samaradorligiga erishish uchun inklyuziv taʼlimning metodikasini ishlab chiqish, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining inklyuziv taʼlimni amalga oshirish metodikasini tarkib toptirish va oliy pedagogik taʼlim muassasalarida defektolog, surdopedagog, logoped mutaxassisligiga ega boshlangʻich sinf oʻquvchilarini tayyorlash tavsiya etiladi.

Xulosa Boshlangʻich taʼlimda inklyuziv taʼlimning ahamiyati shundaki, inkoniyati cheklangan bolalarni sogʻlom bolalar qatoriga qoʻshib sifatli taʼim olishini taʼminlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va harakatlarini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Taʼlim toʻgrisida”gi yangi qunun va inklyuziya: qanday boʻlishi kerak? Gazeta.uz
2. X.N Muzaffarova, D. Tangirova “Inklyuziv taʼlim”
3. Musulmonova O . Umumiy pedagogika
4. “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz Hasanboyeva J. va boshq.
5. Pedagogika fanidan izohli lugʻat. – Toshkent, 2003y.
6. Oʻzbekiston Respublikasining “nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlari toʻgrisida”gi Yangi Qonuni (2020 yil),
7. “Nogironlar huquqlari toʻgrisidagi Konvensiyani (Nyu York, 2016 13 dekabr) radifikatsiya qilish haqidagi”gi Qonuni.
8. www.lex.uz Inklyuziv taʼlim.
9. “Oʻzbekiston ovozi” gazetasi, 2024 yil 7 fevral soni.